“Quyosh kollektorining issiqlik qabul qiluvchi yassi paneli” ishlab chiqildi

O’zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti olimlari tomonidan “Quyosh kollektorining issiqlik qabul qiluvchi yassi paneli” ishlab chiqildi va O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan ixtiro muallifiga patent berildi.

FOYDALI MODELGA

PATENT

ПАТЕНТ НА ПОЛЕЗНУЮ МОДЕЛЬ

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
INTELLEKTUAL MULK AGENTLIGI
АГЕНТСТВО ПО ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ
ПРИ МИНИСТЕРСТВЕ ЮСТИЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

№ FAP 01691

Ushbu patent O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan quyidagi foydali modelga berildi:

Настоящий патент выдан на основании Закона Республики Узбекистан «Об изобретениях, полезных моделях и промышленных образцах», на полезную модель:

Қуёш коллекторининг иссиқлик қабул қилувчи ясси панели
Плоская теплоприемная панель гелиоколлектора

Talabnoma kelib tushgan sana:
Дата поступления заявки: **22.06.2020**

Talabnoma raqami:
Номер заявки: **FAP 2020 0139**

Ustuvorlik sanasi:
Дата приоритета: **22.06.2020**

Patent egasi (egalari):
Патентообладатель(и): **O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fizika-Quyosh" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining Fizika-texnika instituti, UZ**
Физико-технический институт Научно-производственного объединения «Физика-Солнце» Академии наук Республики Узбекистан, UZ

Foydali model muallif(lar)i:
Автор(ы) полезной модели: **Рашидов Карим Юсуфович, UZ**

Patent O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida 22.06.2020 yildan patentni kuchda saqlab turish uchun boj o‘z vaqtida to‘langandagina 5 yil mobaynida amal qiladi.
O‘zbekiston Respublikasi foydali modellar davlat reestrida 18.08.2021 yilda Toshkent shahrida ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Патент действует на всей территории Республики Узбекистан в течение 5 лет с 22.06.2020 г. при условии своевременной уплаты пошлины за поддержание в действии.
Зарегистрирован в государственном реестре полезных моделей Республики Узбекистан, в г. Ташкенте 18.08.2021 г.

Direktor .
Директор

Т. Абдусаттаров

INTELLEKTUAL MULK AGENTLIGI

Quyosh kollektori-issiqlik tashuvchisini isitish uchun quyosh energiyasini issiqlikka aylantirish uchun mo’ljallangan qurilmadir. Absorber, quyosh kollektorining eng muhim qismi ya’ni yuragi hisoblanadi. Yassi panelni tayyorlashda va kollektorining issiqlik samaradorligini oshirishda uning materiali va selektiv qoplamasining sifatiga katta ahamiyat beriladi. Shu munosabat bilan, yuqori samaradorlikka ega, modernizatsiya qilingan, yaxlit ishlangan quyosh suv isitish kollektori uchun alyuminiy qotishmasidan kassetali absorber ishlab chiqildi.

Ixtiro geliotexnika, quyosh energiyasi vositasida suv isitish va fuqarolik, sanoat binolari hamda kommunal-maishiy obyektlarining issiqlik ta’minotida foydalanishga mo’ljallangan.

Ixtironing asosiy vazifasi quyosh kollektorining issiqlik qabul qiluvchi panelini samarali ishlashini va kollektorni yig’ishda uni oson va qulay bo’lishini ta’minlashdan iborat.

Ixtiro mohiyati shundan iboratki, issiqlik qabul qiluvchi elementlar (panellar) chekkalarida joylashtirilgan qulflari bilan tayyorlangan bo’lib, bir-biriga shu qulflar orqali kiydirilib bir tekislikda yig’ilib yaxlit issiqlik qabul qiluvchi panelni tashkil etadi va gidravlik kanallari kassetali panelning ko’ndalang kesimida bir tekis joylashtirilgan bo’lib issiqlik almashinish yuzasini bir necha borobar oshiradi. Issiqlik almashinish yuzasi ortishi bilan kollektorning samaradorligi ham ortadi. Panelning taram-taram bo’lgan ustki qismidagi selektiv qoplama ham qo’shimchasiga 10-12% samaradorlikni oshirib beradi.